



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



**VOL.3 № 3**

**2026**

## SHOMON CHORLOVLARIDA BADIY OBRAZ MASALASIGA DOIR

**Aralov O'tkir**

Toshkent amaliy fanlar universiteti, tadqiqotchi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada shomon marosim folklorining keng ommalashgan janrlaridan biri bo'lgan shomon chorlovlarining obrazlar tizimi borasida mulohazalar yuritilgan. Shomon chorlovida shomonning marosim o'tkazishi uchun o'zining mifologik homiylarini chaqirishi ularga sig'inishi, ularni alqash motivi orqali aks etishi tahlilga tortilgan. Shomon maroimlarida shomon o'zga olam va zamin olami o'rtasidagi vositachi, shomonga murojyat qilgan shaxs, bemor yoki jabrdiyda, mifologik homiylar obrazlari faol ishtirok etishi o'zbek va oltoy shomonlari repertuaridan o'rin olgan chorlov matnlari misolida ochib berilgan. shomon chorlovi mantlarida shomonning magik qudratini ifodalovchi, uning G'ayb olami vakillari yordamida bemorga ta'sir ko'rsatishida yordamga keluvchi ruhlar mifologik homiylar bo'lib, shomonning faoliyatini tartibga solib turuvchi vazifasini o'tashi tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** shomon, chorlov, qushnoch, pир, avliyo, marosim.

## К ВОПРОСУ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА В ШАМАНСКИХ ЗАКЛИНАНИЯХ

**Аралов Уткир**

Ташкентский университет прикладных наук, исследователь

### **Аннотация**

В данной статье рассматривается система образов шаманских призываний, одного из самых популярных жанров шаманского обрядового фольклора. В шаманском призывании анализируется призыв шамана своих мифологических покровителей для проведения ритуала через мотив поклонения им и восхваления их. В шаманских ритуалах шаман выступает посредником между потусторонним и земным миром, к шаману обращается человек, больной или потерявший что-либо, а активное участие мифологических покровителей раскрывается на примере текстов призываний из репертуара узбекских и алтайских шаманов. В шаманских призываниях духи, выражающие магическую силу шамана и помогающие ему воздействовать на больного с помощью представителей Невидимого Мира, являются мифологическими покровителями и играют роль регулирования деятельности шамана.

**Ключевые слова:** шаман, призываний, кушаноч, пир, святой, ритуал.

## ON THE ISSUE OF THE ARTISTIC IMAGE IN SHAMANIC INCANTATIONS

**Aralov O'tkir**

Tashkent University of Applied Sciences, Researcher

### **Abstract**

This article examines the system of images found in shamanic invocations, one of the most popular genres of shamanic ritual folklore. The study analyzes how a shaman calls upon mythological patrons during ritual performance through motifs of worship and praise. In shamanic rituals, the shaman acts as an intermediary between the earthly and supernatural worlds. The active participation of mythological patrons is illustrated through invocation texts from the repertoire of Uzbek and Altai shamans.

**Keywords:** shaman, invocation, kushanok, pir, saint, ritual.

Shomon marosimlari asrlar o'sha xalq hayotida saqlanib kelayotgan o'zining mifopoetik xususiyatlari bilan ajdodlarimizning arxaik tasavvurlari, badiiy tafakkurining shakllanishi va tadrijiy takomilini aniqlash imkoniyatini beruvchi og'zaki asarlar silsilasini tashkil etadi. Shomon marosim folklori janrlar tarkibidan o'rin olgan shomon chorlovlari o'zining spesifik xossalari, marosim jarayonidagi mifologik mohiyati va mifopoetik xususiyatlari bilan alohida o'rin tutadi. Shomon marosimlarida marosimning boshlang'ich kaliti sifatida ijro etuluvchi folklor janri shomon chorlovidir.

Shomon chorlovida shomon marosim o'tkazishi uchun o'zining mifologik homiylarini chaqirishi ularga sig'inishi, ularni alqash motivi orqali aks etadi. Shomon marosimlarida shomon o'zga olam va zamin olami o'rtasidagi vositachi, shomonga murojlat qilgan shaxs, bemor yoki jabrdiyda, mifologik homiylar obrazlari faol ishtirok etadilar. Odatda shomonga bemor yoki biror narsasini yo'qotgan shaxslar murojaat qilishadi. Ba'zan, tabiat voqealarining, tasodif halokatlarning oldini olish maqsadida ham odamlar shomonga murojaat qilishadilar. Biroq, bunday murojaatlar keyingi paytlarda kamdan kam ko'zga tashlanadi. Hozirgi o'zbek shomonlarida aksariyat hollarda kishilar davosiz dardga davo istab shomon huzuriga oshiqadilar. Ko'pchilik hollarda odamlarning bir-birlariga jodugarlar tomonidan qilingan qora amallarni bartaraf etish, tanaga joylashib olgan yovuz ruhlarni haydab chiqarish, darddan forig' bo'lish, yo'llarini ochilishi maqsadida murojaatlar kuzatiladi. Shomon marosimlari borasidagi kuzatishlarimiz natijasida shomon marosimlarida albatta, shomon alas qilishi, keyin ko'chiriq, qaytarma yoki xurmo suq, kinna kabi marosimlarini o'tkazishini aniqladik. Qayd etilgan barcha marosimlar verbal qismi shomonning o'z mifologik homiylariga yalishini, iltijosi bilan boshlanadi.

O'zbek shomonlarining marosim boshlanishida ijro etadigan chorlovlaridagi marhum avliyolar, eshonlar, pirlar va parilarga murojaat qilishlari va ulardan madad olish masadida ularni chaqirish an'anasi islomdan oldingi e'tiqodlarning qoldiqlari sifatida bahalanmog'i lozim. 1920-yillarda Toshkentda etnografik ekspedisiya olib borgan A.L.Troiskoyning eski Toshkentda ayollar zikriga doir tadqiqotida ham zikr tushayotgan ayollarning pir va avliyolar, eonlar ruhini chaqirishlari borasida ma'lumot keltiriladi[5]. A.L.Troiskoyning qayd etishicha, G'av-sul A'zam, Ahmad Yassaviy, Hazrati Mashrab, Muhiddin eshon va boshqa avliyo deb sanaluvchi azizlar ruhlari chorlangan va ulardan madad so'ralgan.

O.A.Suxarevaning tojik marosimlarida ruhlar va yvuz kuchlar talqiniga bag'ishlangan maqolasida ham o'zbek va tojik shomonlari o'zlarining marhum ustozlari ruhini yod etishi, ulardan madad so'rashi qayd etiladi[4. – C.5-93]. S.M.Demidovning maxdumlar haqidagi ma'lumotlarida ham turkman shomonlari va azaimxonlarining maxdumlar, choryorlar ruhlardan madad so'rash an'anasi mavjudligi borasida ma'lumot qayd etiladi[3.– C.169-190]. Shomoniylilik va islom e'tiqodining O'rta Osiyo xalqlari orasida tarqalishi va hayotiy o'rniga doir tadqiqotlar olib borgan etnograf V.N.Basilov tomonidan ham avliyolar va pirlar duoxon hamda shomonlarning mifologik homiysi ekanligi borasida ma'lumotlar keltiriladi [2].

Shomon chorlovlari A.V. Anoxin tomonidan e'lok qiligandi. Olim XX asr borshlarida birinchilardan bo'lib Oltoy turkiy qavmlari shomon chorlovlarini e'lon qiladi[1]. A.V. Anoxin tomonidan e'lon qilingan chorlov matnlarida ajdodlar ruhiga sig'inish va marhumlar ruhini madadga chaqirish motivining yetakchilik qilishi kuzatiladi:

|                                 |                                           |
|---------------------------------|-------------------------------------------|
|                                 | <i>Abu Qoonga tayangan,</i>               |
| <i>Abu-KannyH Aga Kystar!</i>   | <i>bu Qoonning og'a qizlari</i>           |
| <i>Syt-köldiH Puralar</i>       | <i>Sut ko'lining parilari</i>             |
| <i>Ak Adany tayanyr,</i>        | <i>Oq otaga tayanib,</i>                  |
| <i>Aydy-kündy alkap jürgen,</i> | <i>Oyni, kunni(quyoshni) alqab yurgan</i> |
| <i>«Kygyrchi» tep,</i>          | <i>Momoqaldiraq men,</i>                  |

|                                           |                                              |
|-------------------------------------------|----------------------------------------------|
| <i>«Jalgyinchy» tep,</i>                  | <i>Chaqmoq odam, men</i>                     |
| <i>KygyrchidiH eezi,</i>                  | <i>Momoqaldirloqlarning hukron ruhi Siz,</i> |
| <i>JalgyinchyтыH uluzы.</i>               | <i>Chaqmoq odamlari</i>                      |
| <i>Jalagalu Pay-TepseH,</i>               | <i>Zamburug muqaddas- Tepseng</i>            |
| <i>Jalbyraktu Pay-KayыH![1. – C. 68.]</i> | <i>Muqaddas qayin yaproqlari</i>             |

Ko‘rinadiki, oltoyliliklar shomoniylilik marosimlari boshlanish qismida ham ijro etiladigan shomon chorlovida shomonning mifologik homiylari qatorida hoqonlar – hukmdorlar, sut ko‘lining parilari, O‘q ota, chaqmoq odam singari mifologik personajlar tilga olinadi. 1957- yilda Ashuroy Ro‘ziyevadan M.Alaviya yozib olgan “Ko‘chiriq” marosimi aytimlarida shomon chorlovi qismi mavjud. Mazkur shomon chorlovida oltoyliliklardagi singari muqaddas sanalgan shaxslar, avliyolar ruhini chorlash ko‘zga tashlanadi. Chorlov matnida Ko‘ktosh ota, Chiroqchi ota, Ko‘kto‘nli ota, Oq tuya ota, Boboshodi avliyo, Hazrati Mirjanda avliyo kabi mifologik homiylar tilga olinadi:

Ko‘ktosh ota avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Chiroqchi ota avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Ko‘kto‘nli ota avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Oqtuya ota avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Molik ajdar avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Hazrat Langar avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim.  
Boboshodi avliyo,  
Men sizlarga sig‘indim[7].

Navoiy viloyati Xatirchi tumani A.Halimov hududida istiqomat qiluvchi qora qushnoch Risolat momo Po‘latovadan folklorshunos O.Qayumov tomonidan 2010-yilda yozib oltingan “Suq chiqarish” marosimi matnida:

Ey, momojonlarim,  
Ey, onajonlarim,  
Ey, Oллоhim,  
Qo‘l bergan ustozim, pirim,  
Anbar onam,  
Qambar onam,  
Emchi onam,  
Man sizlarga sig‘indim[6].

O‘zbek kushnochi shomon chorlovida Anbar ona, Qambar ona, Emchi ona, qo‘lbergan pir kabi obrazlarga sig‘inish motivini uchramiz. Shomon chorlovida shomon sig‘inishini izhor etayotgan obrazlar shomonning mifologik homiylaridir.

Demak, shomon chorlovi mantlarida shomonning magik qudratini ifodalovchi, uning G‘ayb olami vakillari yordamida bemorga ta’sir ko‘rsatishida yordamga keluvchi ruhlar mifologik homiylar bo‘lib, shomonning faoliyatini tartibga solib turuvchi vazifasini o‘tashadi.

Shomon chorlovlarida asosan uch obraz ishtirok etadi. Bular: shomon+shomon mifologik homiysi+murojaat qilgan shaxs obrazi bo‘lib, chorlov va marosim davomida mifologik homiylar shomonning vositachiligida murojaatchining tanasidan yovuz ruxlarni haydab chiqarish, yoki yo‘lini qulflab turgan yovuz quchlarga ta’sir ko‘rsatib, berkitilgan qulflarni ochish orqali murojaatchi yo‘llarini ochish, yo‘qolgan narsalarning joyini aniqlash kabi hodisalarni sodir

qilishda ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, shomon chorlovlaridagi mazkur obrazlar tizimi marosimning ichki mantiqiy tuzilishini belgilab beradi va uning funksional yoʻnalishini aniqlashtiradi. Shomon obrazining vositachi sifatida talqin qilinishi real va gʻaybiy olam oʻrtasidagi chegarani bartaraf etib, marosimni muqaddas makon darajasiga koʻtaradi. Mifologik homiylar esa shomonning individual qudratini emas, balki ajdodlar ruhi, tabiat kuchlari va kosmik tartib bilan bogʻliq umumiy kollektiv tasavvurlarni ifodalaydi.

Murojaatchi obrazi esa marosimning maqsadli yoʻnalishini belgilovchi markaziy ijtimoiy subyekt sifatida namoyon boʻlib, uning jismoniy yoki ruhiy holati chorlov matnlarining semantik mazmuniga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Shu jihatdan, shomon chorlovlari nafaqat davolash yoki bashorat qilish vositasi, balki jamiyatda muvozanatni tiklash, ijtimoiy va ruhiy uygʻunlikni taʼminlashga qaratilgan marosimiy-badiiy hodisa sifatida namoyon boʻladi. Demak, shomon chorlovlaridagi obrazlar tizimi xalqning mifologik tafakkuri, diniy eʼtiqodlari va estetik qarashlarini mujassamlashtirgan murakkab va koʻp qatlamli badiiy tizimni tash.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Анохин А.В. Материалы по шаманству у алтайцев. Л., 1924.
2. Басилов В.Н. Культ сяткх в Исламе. – Москва: Наука, 1970.
3. Демидов С.М. Махдуми/ Домусулманьские верования и обряды Средней Азии, – Москва: Наука, 1975, – С.169-190.
4. Сухарева О.А. Пережитки демонологии шаманства у равнинных таджиков/Домусулманьские верования и обряды Средней Азии, – Москва: Наука, 1975, – С.5-93.
5. Тройской А.А. Женский зикр в старом Ташкенте//Сборник музея антропологии и этнографии, т. VII/ Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН
6. [http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08\\_03/mae\\_vii/](http://www.kunstkamera.ru/lib/rubrikator/08/08_03/mae_vii/)
7. O.Qayumovning shaxsiy arxivi. 1- daftar.
8. Oʻz RFA Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivi. Inv.9/29.